

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.U.Xamidjanov</b>	
Sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirishda yakkakurash elementlariga ega harakatlari o'yinlardan foydalanish metodlari.....	85
<b>A.A.Parmonov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlili .....	90
<b>M.A.Tursunboyeva</b>	
Tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tilini o'qitishning mazmuni tushunchasining lingvodidaktik tavsifi .....	97
<b>M.I.Boymanova</b>	
Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quvchilar kompetentsiyasini shakllantirish .....	102
<b>A.Matkarmov</b>	
O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik omillari (xalqaro baholash tadqiqotlari misolida) .....	105
<b>N.M.Xodjibolayeva</b>	
Al-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari .....	110
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiysi .....	114
<b>N.Sayimbetova</b>	
Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari .....	117
<b>A.Abdullayev</b>	
Jismoniy mashqlar inson "Hayotiy quvvati"ni tiklash vositasi .....	121
<b>J.Sh.Mamayusupov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish zarurati .....	125
<b>S.Abdullayev</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kognitiv kompetentligini shakllantirishning pedagogik mazmuni .....	129
<b>D.O.Djalilova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germenevtik kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati .....	138
<b>М.М.Азизов</b>	
Что такое нордическая ходьба (nordic walking), финская ходьба, северная ходьба с палками, скандинавская ходьба? .....	141
<b>L.Z.Xolmurodov</b>	
9-10 yoshdagи bolalarning muvozanat saqlash funksiyasini rivojlantirishning yoshga xos me'yorlari .....	147
<b>I.M.Saidov</b>	
Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ilmiy tavsifi .....	151
<b>O.A.Xo'jaqulov</b>	
Bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompyetyentlikni rivojlantirishning pyedagogik shart-sharoitlari .....	155

## FALSAFA

<b>A.A.Qambarov</b>	
Abdurauf fitrat ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatining falsafiy tahlili .....	161
<b>B.B.Namozov</b>	
Movarounnahrda temuriylar davrida tasavvuf ijtimoiy ma'naviy hodisa sifatida .....	166
<b>M.T.Voxidova</b>	
Yoshlarda barqarorlik va bag'rikenglikni namoyon bo'lishining ijtimoiy-axloqiy jihatlari .....	172
<b>I.M.Arzimatova</b>	
Ayol rahbarlarning axloqiy va estetik madaniyatini integratsiyalash asosida "Rahbar ayol" portretini shakllantirish vazifalari .....	176

**BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARINI KOGNITIV KOMPETENTLIGINI  
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ  
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**PEDAGOGICAL CONTENT OF THE FORMATION OF COGNITIVE COMPETENCE OF  
FUTURE TEACHERS OF MUSIC EDUCATION**

**Abdullayev Sardorbek Maxammat o'g'li<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Maqolada musiqa ta'limi o'quvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini va uning bir tarmog'i sanaladigan kasbiy kognitivlikni oshirish ahamiyati haqida so'z boradi. Bugungi kun musiqa o'qituvchilari faoliyatini samaradorligini, pedagogik faoliyatini yo'nga qo'yishga tayyorlashda avvalo, unda pedagogik mahorat, har bir pedagogik jarayonda zarur bo'lgan kompetensiya turlariga egalik faoliyatdagagi ahamiyati yoritib o'tilgan. Musiqa ta'limi talabalarining kognitiv kompetentligi jarayonda musiqa ta'limi olib borilishida o'quvchilarning o'z kasbiy bilimlарини muntazam yangilab borishi, ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishi hamda kelajakda musiqa fani o'qituvchisi sifatida ta'lim berishi, muammolarni o'z konitiv tafakkurida yechishi uchun kognitiv psixologiyasini effektiv o'quv-yondashuv usullarini yordamida oshirish haqida fikr bildirilgan.*

**Аннотация**

В статье говорится о важности совершенствования профессионально-педагогического мастерства студентов музыкального образования и профессионального познания, которое является одной из его отраслей. Сегодня в деятельности подчеркивается эффективность деятельности учителя музыки, подготовка к началу педагогической деятельности, прежде всего, важность педагогического мастерства, владения видами компетенций, необходимых в каждом педагогическом процессе. Познавательная компетентность студентов музыкального образования в процессе ведения музыкального образования заключается в том, что студенты регулярно обновляют свои профессиональные знания, постепенно формируют навыки и в дальнейшем преподают в качестве учителей музыки, решают задачи самостоятельно. мышления, предлагается совершенствовать его когнитивную психологию с помощью эффективных методов педагогического подхода.

**Abstract**

*The article talks about the importance of improving the professional and pedagogical skills of students of music education and professional knowledge, which is one of its branches. Today, the activities emphasize the effectiveness of the music teacher, preparation for the start of teaching activity, and, first of all, the importance of pedagogical skill, mastery of the types of competencies necessary in each pedagogical process. The cognitive competence of music education students in the process of conducting music education lies in the fact that students regularly update their professional knowledge, gradually develop skills and subsequently teach as music teachers and solve problems independently. thinking, it is proposed to improve his cognitive psychology using effective methods of the pedagogical approach.*

**Kalit so'zlar:** Shaxs, jamiyat, tafakkur, kognitiv kompetentlik, fanlararo tafakkur, kognitiv shaxs, kognitiv rivojlanish, musiqa tushunchasi.

**Ключевые слова:** Личность, общество, мышление, познавательная компетентность, междисциплинарное мышление, познавательная личность, познавательное развитие, понятие музыки.

**Key words:** Personality, society, thinking, cognitive competence, interdisciplinary thinking, cognitive personality, cognitive development, concept of music.

**KIRISH**

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy maqsadi ta'lim oluvchilar (talabalar, o'quvchilar)ni fikrlashga o'rgatish ekanligi shubhasiz, haqiqatdir. Mantiqiy fikrlash va tanqidiy fikrlash kabi yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlar, maktab va Oliy ta'lim muassasalaridagi akademik yutuqlardan tashqari, kundalik hayotning asosiy ko'nikmalaridir. Ta'lim standartlarini yaxshilash uchun kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish tabiatiga ta'limning barcha tarkibiy qismlarida, masalan, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, o'qitish amaliyoti va baholashda tushunilishi kerak. Ammo, afsuski, kognitiv rivojlanish ko'proq o'quv dasturi mavzulari talabalar darajasiga mos keladimi yoki yo'qligini muhokama qilish uchun ishlataladi. O'qituvchilar o'z kasbiy, amaliy faoliyat jarayonlarida talabalarda yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradigan o'qitish bilan shug'ullanmaydilar. O'qituvchilar o'zlarining o'qitish amaliyotlari o'quvchi va talabalarning kognitiv

qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadimi yoki yo'qligini ba'zida nazardan chetda qoldirish holatlari ham uchrab turadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan kasbiy kompetentlik va kognitivlikka qaratilgan ilmiy tadqiqotlar orqali musiqiy ta'limi rivojlantirish masalalariga katta ahamiyat qaratilganligi: B.S.Gershunskiy, V.P.Bezpalko, I.V.Snigirov, B.G.Asafev, B.L.Yavorskiy, A.B.Goldenveyzer, D.B.Kabalevskiy, O.A.Apraksina, E.B.Abdulin, Y.B.Aliyev, L.G.Archajnikova, A.N.Leybovich, G.A.Ball, S.E.Shishovlarning olib borgan ilmiy izlanishlari orqali o'rganilgan.

Bolajak musiqa ta'limi yo'nalishi talabalarining kognitiv kompetentligini shakllantirishda muhim masalalar ko'rib chiqilsa, ularning umumiy ma'lumotlari va turli ko'nikmalarini oshirishga fokuslanadi. Keling ayrim kognitivlining ayrim jihatlarini ko'rib chiqamiz.

*Musiqa tushunchalari va asosiy tamoyillarini o'rganish:* Talabalar musiqa asoslarini, instrumental va vokal alomatlarni, musiqa turlarini va g'oya asarlarini o'rganish orqali musiqa tushunchalarini oshirishadi.

*Analitik fikr va muhokama qobiliyatları:* Kognitiv kompetentlikni shakllantirishda talabalarga musiqa asarlari va ularning ijro qilinishi bo'yicha analiz va muhokama qilishni o'rganishga e'tibor beriladi. Ular musiqa ijrosini, tahlil qilish va o'z fikrlarini izohlashga o'rgatiladi.

*Musiqa tarixi va o'zbek musiqasi tarixi:* Ular o'zbek musiqasi tarixi, mavzulari, ustuvor shaxslari va asosiy ijrochilarni o'rganish orqali musiqa tarixini tushunishadi.

*Kreativlik va ijodiylik:* Kognitiv kompetentlik o'zlashtirishda, talabalar musiqa ichidagi ijodiylik va kreativlikni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Ular o'z muhitlarida, g'oya tushunchalarini ijro etish va yangi musiqa asarlarini yaratishni o'rganishadi.

*Tajriba va amaliyat:* Talabalar musiqa ustuvorliklarini, ijro va boshqa ko'nikmalarini o'rganganlarini amaliyotda mustahkamlashlari, jamoat bilan hamkorlik qilishlari va o'zlarining rivojlanishini ta'minlash uchun muhimroq muhokama va tanishuvlarni o'rganishadi.

Bu ma'lumotlar orqali, bolajak musiqa ta'limi yo'nalishidagi talabalar kognitiv kompetentliklarini shakllantirishda turli yo'llar va usullardan foydalanishadi. Bu kompetentliklarni rivojlantirish uchun tajribaviy va nazariy darslar, amaliy mashg'ulotlar, tahlil va boshqa o'quv jarayonlari jiddiy muhim ahamiyatga ega.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchisining kognitiv kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayoni mazmunida pedagogik mahorat o'ta muhim bo'lib, u o'z ichiga musiqiy pedagogik ijodkorlikni, o'quv tarbiyaviy vazyatlar va muammolarni yechishga qobiliyatli bo'lishi, pedagogik texnologiya hamda innovatsion ta'limda kognitiv kompetentlik tushunchaga ega bo'lishi kabi sifatlarni shakllantirishni qamrab oladi.

Talabalar kognitiv kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni tashkil etishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur:

1) talabalar tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

2) talabalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) talabalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) talabalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kognitivni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

1) o'zini tavakkalchilikdan olib qochish;

2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;

3) shaxs fantaziysi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo'lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Mutaxassislik darslar orqali bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy kognitivligini shakllantirish bilan birga, ixtisoslik fanlarini o'rganishda o'quvchilar psixofiziologiyasini anglash hissini tarbiyalash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarning kognitiv qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchilarning hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratish mutaxassislik va ixtisoslik fanlarining dolzarb masalalaridan biri. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va talabalarning teng munosabatlardan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etish kerak va bu muhim pedagogik jarayonni o'z ichiga oladi.

## PEDAGOGIKA

Zamonaviy pedagogik ta'lif tizimining maqsadi, yangi toifaga mansub bo'lgan musiqa o'qituvchisining umumiy va kasb kamolotiga erishishdan iborat. Chunki, bilim dargohi musiqa rahbari oldiga uning kasb malakasiga va shaxsiy hislatlariga nisbatan yuqori talablar qo'yemoqda. Har qanday pedagoglik kasbi murakkab va serqirra jarayondir. Shuning uchun bu kasb qaysi sohaga tegishli bo'lmashin, bo'lajak musiqa o'qituvchisi oldiga ko'pgina talablarni qo'yadi. Ta'lif – tarbiyaning barcha sohalarining maqsadi barkamol shaxs tarbiyalashdir. Lekin bu borada ta'lif muassasalarida estetik turkumga kiruvchi fanlar – musiqa, tasviriy va amaliy san'at, adabiyot va ularning o'zaro aloqadorligi asosiy rolni o'ynaydi. Jumladan, ta'lif muassasalarida musiqa mashg'ulotlari, musiqa o'qituvchilari ham maxsus bilimlar, ko'nikma va malakalar, pedagogik qobiliyat hamda pedagogik mahoratga ega bo'lishlari lozim. Ma'lumki, musiqa mashg'ulotlari to'rtta musiqiy jarayonni o'z ichiga oladi:

O'qituvchi dars jarayonida faol ishtirok etadi. Talabalarga ta'lif va tarbiya berish, o'quv metodik ishlarni olib borish, tashkiliy ishlarda ishtirok etish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish o'qituvchi faoliyatining asosiy tomonlari hisoblanadi. Talabalarga bilim berish pedagog faoliyatida muhim o'rinni egallaydi. Zamon talabiga mos keladigan bilim tizimini talabaga yetkazish, bilim olishga ularni qiziqtirish, bilimlarni o'zlashtirishda talabaning faolligiga erishish hozirgi kundagi mutaxassislik va ixtisoslik fanlarining pedagogik jarayonida talab etilmoqda.

Musiqi o'quv jarayoni juda murakkabdir. Musiqiy bilimlarning cheki yo'q. Mutaxassislik fanlarida talaba va o'qituvchining pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanib, ularga quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- bo'lajak musiqa o'qituvchilarining dars davomida befarq bo'lmashlikka, ijodiy faoliyat orqali ixtisoslik fanini puxta o'zlashtirishiga, ijod etish va izlanishga, mustaqil fikrashga majbur etishi;
- talabalarni mutaxassislik fanlari o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- talabaning ixtisoslik fanlarida bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- ustoz va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Mutaxassislik hamda ixtisoslik darslarida talabalar kreativ kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda o'qituvchi va talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishi uchun balkim film, taraqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular pedagogik jarayonni tashkil etishga bog'liq.

O'qituvchi bilan bir qatorda o'qitish jarayoni oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonida o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini, talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafotlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, talabani ta'lifning markaziga olib chiqish kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir mutahassislik darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi mutaxassislik fanlari qatori pedagogika, psixologiya, xususiy metodika va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi zarur hisoblanadi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'yan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik karta qanday tuzilgan bo'lmashin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafotlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik kartani tuzilishi o'qituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday kartada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qitayotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik karta unga fanni, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondoshishga, tushunishiga (bir semestr, bir o'quv yili bo'yicha), yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasiga ko'ra olishiga yordam beradi. Ayniqsa, texnologik kartani talabaning imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi uni shaxs sifatida ta'limning markaziga olib chiqishiga o'qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

O'qitish jarayonida talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni ijrochilik mahoratlarini oshishiga, mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, ma'suliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, mutaxassislik fanlari va ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga; eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogika va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarni kuchaytiradi.

Kasbiy faoliyatda bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni ham taqazo etadi. Biz ulardan ba'zilari haqida to'xtalib o'tamiz. "Musiqqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash" o'quv qo'llanmasida atroficha tushuncha beramiz. Ushbu o'quv qo'llanmada keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talabalarda ixtisoslik, ijo mahoratini rvojlantirish, mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, kognitiv, komunikativ mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lislariha hamda mutaxassisiga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Bu jarayonga talabaning hayotiy tajribasi, mavjud bilimlari, bayon etilayotgan bilimlar tizimiga, fanga o'qishga munosabati ta'sir etadi. Bu sohada talabalarning imkoniyati bir xil bo'lmaydi. Keng bilimga, boy hayotiy tajribaga ega, o'qish ko'nikmalarini o'zlashtirgan talabalar o'qishda muvaffaqiyat bilan ishlaydi. Bilimlarni o'zlashtirishga talabaning avval o'zlashtirgan ta'limiyo ko'nikma va malakalari ta'sir etadi. Psixoglarning ko'rsatishicha bilimlarni o'zlashtirish, bu yangi qabul etilayotgan informatsiyani talabada avval mavjud bo'lgan informatsiyalar tizimiga kiritishdir. Talabada bilimlar qanchalik keng bo'lsa, yangi informatsiyani qabul etishi oson bo'ladi.

Yana shunga e'tibor berish kerakki, o'qituvchi talabadagi yangi o'rganilayotgan mavzuga oid ma'lumotlarni tiklashi, mavzuni o'zlashtirishi uchun asos hosil qilishi zarur. Ayniqsa, yangi mavzuni boshlaganda talabalarni qiziqtiradigan savol qo'yilishi, muammoli vaziyatlar yaratilishi qiziqishni kuchaytiradi. O'qituvchi talabaga ta'lism berishda maksimal foya keltiradigan ish usullarini qo'llashi kerak.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda talabaning bilish jarayoni sezish, idrok, xotira, tafakkur va hayolni o'z ichiga oladi. Sezish va idrok bilimning dastlabki, eng oddiy bosqichi hisoblanadi. Sezishda tashqi dunyo taassurotlarining xususiyatlari bosh miyada alohida, alohida aks ettiriladi. Idrokda shu taassurotning yaxlit obraqi bosh miyada hosil bo'ladi.

Idrok sezgiga nisbatan murakkab aks ettirish bosqichi bo'lib, unda odamning yoshi, bilimi, hayotiy tajribasi, nutqi, idrok obyektiga munosabati, ruhiy holati va boshqalar ta'sir etadi. Sezgi va idrok asosida odamning ichki dunyosi shakllanib boradi.

Xotira shu sezilgan va idrok etilgan taassurotlarni bosh miyada saqlab qolishini ta'minlaydi. Tashqi dunyo taassurotlarini inson ongiga o'rashishi, saqlanishi va keyinchalik qayta tiklanishi xotira hisoblanadi. Xotiraning har bir bosqichiga ta'lism jarayonida katta e'tibor berish kerak. Asosiy e'tiborni esda olib qolish bosqichiga qaratish foydalidir. Chunki, yaxshi esda olib qolingga taassurot esda uzoq vaqt saqlanib qoladi. Masalan: har bir shaxs hayotida muhim sanalarni-tug'ilgan kunlar, maktabga birinchi borilgan kun, farzand tug'ilishi, mukofot olish va boshqalar doimo aniq eslanadi. Chunki, bunday tantanali (ayrim qayg'uli kunlar) inson shaxsiga kuchli ta'sir etadi va xotiraga qattiq o'rashib qoladi.

Xotiraning bu xususiyatidan ta'lism jarayonida foydalanish kerak. O'quvchiga yetkazilayotgan materialning hayotiy, ilmiy ahamiyati tushuntirilishi, muammoli vaziyatlar yaratilishi, materialni ta'sirchan usullaridan foydalanib o'tilishiga e'tibor berish zarur.

Uzoq vaqt ta'lism jarayonida xotiraga asoslanib bilim berib kelindi. Bunday o'qitishni an'anaviy o'qitish deyilmoqda.

Bugungi ta'lism jarayonlari o'ziga xos ta'lism jarayonlaridan tashkil topgan. Bilimlarni o'zlashtirishda interfaol ta'lism jarayonlarining ahamiyati katta. Quyida ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

## PEDAGOGIKA

Novatorlik va yangilik – madaniyat, ta’lim va umumiylikda jamiyat rivojlanishining ikki jihat. An’analor va yangiliklarning xilma-xil munosabatlariga tayanib, madaniyatshunoslar jamiyatni an’anaviy va zamonaviyga ajratib ko’rsatishadi. An’anaviy jamiyatda an’ana novatorlik ustidan hukmronlik qiladi. Zamonaviy jamiyatlarda esa, novatorlik bazali qadriyat sanaladi.

O’qituvchining kognitivligi bevosita yangilik kiritishi bilan uzviy boqlig holda darslar jarayonida rivoj topadi. Innovatsion ta’limning asosiy maqsadi ta’lim oluvchilarda kelajakkka mas’uliyat hissini va o’z-o’ziga ishonchni shakllantirishdir. J.Botkin boshchiligidagi olimlar guruhi “Rim klub” ma’ruzasida innovatsion ta’limni an’anaviy, ya’ni “normativ” ta’limga muqobil sifatida bilimlarni egallashni asosiy turi sifatida tavsifladi. Normativli ta’lim “takrorlanuvchi vaziyatlarda faoliyat xulq-atvor qoidalarini o’zlashtirishga yo’naltirilgan” bo’lsa, innovatsion ta’lim yangi vaziyatlarda birgalikda harakatlanish qobiliyatini rivojlantirishni ko’zda tutadi.

Bo’lajak musiqa o’qituvchilarini kognitiv kompetentligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirishga tayyorlashning didaktik tizimi

**Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS talablari**

**Ta’lim berishning maqsad va vazifalari**

**O’qitishning didaktik prinsiplari**

**Pedagogik shart-sharoit**

**Kognitiv kompetentlik jarayonning shakl, metod, vositalari**

**Kognitiv kompetentlik operatsiyalari, usullari, bosqichlari**

**Metodik ishlanmalar**

**Faoliyatni rag’batlantirib borish**

**O’qitish texnologiyalari**

**Talabalarning mustaqil ishlash ko’nikmalari**

**Natija:** Kreativ kompetentligini oshirish bo‘yicha yuqori kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan bo’lajak musiqa o’qituvchisi.


**1-rasm. Bo’lajak musiqa o’qituvchilarini kreativ kompetentligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirishga tayyorlashning didaktik tizimi.**

Sxema muallif tomonidan tuzilgan.

Keys-stadi interaktiv ta’lim metodi darsi - tinglovchilar tomonidan eng afzal ko’riladigan metodlar qatoriga kirmoqda. Buning sababi sifatida ushbu metod tinglovchilarga tashabbus bildirish, nazariy holatni o’zlashtirishda hamda amaliy ko’nikmalarni shakllantirishda mustaqillikka ega bo’lish imkoniyatini berishida ko’rish mumkin. O’z navbatida vaziyatlarning analizi (tahlili) tinglovchilarning kasbiy shakllanish jarayoniga kuchli ta’sir o’tkaza olishi, ularning kasbiy jihatdan “ulg’ayishiga” xizmat qilishi, ta’lim olishga nisbatan qiziqish va ijobjiy motivatsiyaning shakllantirishi alohida ahamiyatga ega.

Musiqa ta’limida san’atning nazariy asoslarini chuqr o’rgatish va bu orqali san’atning ijtimoiy ahamiyati va u bilan bog’liq jarayonlarni tushuntirish, badiiy-estetik ta’sir samaradorligini, ijtimoiy ahamiyatini ko’rsatib berish va ilmiy asosda aniqlab olish zarur. Bularga, birinchidan, mavjud voqelikning badiiy in’ikos obyekti va predmetiga aylangan narsa-hodisalari; ikkinchidan,

bevosita badiiy ijodkor kishilar guruhi, shuningdek, san'at qadriyatlarini yaratadigan va tarqatadigan muassasa va birlashmalar taalluqlidir. Uchinchi komponentni yaratilgan va ijtimoiy-estetik munosabatlar tizimidan o'rIN olgan qadriyatlar majmui, to'rtinchisini esa san'at, adabiut, badiiy va adabiy tanqid ta'sirida shakllangan san'at ixlosmandlari tashkil etadi. Bu qatlamlarning istaklari, san'atni qabul qilish dunuoqarashi, ular talab qilayotgan asarlar xususiyati, umuman olganda ular orqali ijtimoiy muhitning talab va ehtiyojlarini anglashi va buni o'z o'quvchilariga tushuntirib bera olish ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi.



**2-rasm. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirishni tarkib toptirishga tayyorlashning pedagogik modeli**

## PEDAGOGIKA

Tadqiqot jarayonini to'g'ri va maqsadli tashkil etishning optimal yo'li bu modellashtirishdir. Jarayon doirasida pragmatik, tizimli-funksional modelni ishlab chiqish maqsadi belgilandi. Modelning mazkur turi bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirish tizimini takomillashtirish asoslariga doir bilimlarini pedagogik jarayondagi rivojlantirish vositalarini izlab topishga imkon beradi. Model subyekti sifatida talabalarning tayyorgarlik darjasini boshlang'ich va yakuniy holati o'rtaсидаги farqqa erishishga imkon beruvchi tadqiq etilayotgan jarayonlarni boshqarish funksiyalarini aks ettirishga yordam beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirish tizimini takomillashtirish modeli maqsadga yo'nalgalanlik, nazariy-metodologik, mazmunli-jarayonga doir, tashkiliy-pedagogik va natijaviylik komponentlarini o'zida ifodalaydi (2-rasmga qarang).

Bizning modelimizda "kognitiv kompetensiya" tushunchasi murakkab yaxlit obyektni yoki o'quv jarayonining individual tarkibiy qismlarining bog'liqlik holatini tavsiflash uchun hamda turli xil tarkibiy tashkil etuvchilardan bir butunni yaratishda qo'llaniladi.

Tahlil darsi - musiqa savodi, musiqa tinglash, qo'shiq kuylash jarayonlarida o'tilgan asarlarni mukammal tahlil qilishga e'tibor beriladi. Zotan asarlarni bat afsil tahlil qilish, ya'ni uning mualliflari haqida ma'lumotlar keltirish, asarning tempi, ritmi, o'Ichovi, ladi, tonligi, dinamikasi, shakli, qanday jamoa yoki orkestr uchun yozilganligini aniqlash, janrini aniqlash, uning g'oyaviy mohiyati, badiiy qiyofasini o'rganish asar orqali musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishga zamin yaratadi. Tahlil darsini qanday tashkil etish va qay yo'sinda o'tkazish o'qituvchining ijodkorligiga bog'liq. Bunday darslardan, avvalam bor amaliy maqsad ko'zlanadi. Tahlil darslari o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatadi, o'ylashga majbur qiladi, turli muammolarga duch kelib, ularni echishga undaydi.

Suhbat darslari - musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini jonli va qiziqarli o'tkazishning muhim vositalaridan biridir. Darslarni suhbat shaklida uyuşdırish va o'tkazish o'qituvchidan ijodiy izlanishni talab qiladi. Suhbatni aniq tuzilgan reja asosida, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan tarzda olib borish o'qituvchi mahoratining belgilovchi omili hisoblanadi. Suhbat darsi jarayonida o'quvchi mustaqil fikrlashga va o'z fikrini bayon eta olishga o'rganadi. Suhbatning samarali, qiziqarli, ma'lumotlarga boy bo'lishi o'qituvchining rahbarlik mahoratiga, savollar tuzish va ularni to'g'ri tanlay olish uquviga bog'liq. Suhbat darslari o'zlashtirilgan musiqiy-nazariy bilimlarni tekshirishning eng samarali yo'llaridan biridir. Suhbat darslarining yana ham samaraliroq bo'lishi suhbatdoshlarning mavzuni aniq va yaxshi tushunishlariga, suhbat paytida beriladigan savollar aniq va lo'nda bo'lishiha bog'liq. Savollar og'zaki tarzda berilib xuddi shu tarzda javob olinadi. O'qituvchi o'quvchilar javoblaridagi xatolarni ko'zatib boradi va kerak bo'lgan hollarda tuzatib turadi. Suhbatda mustaqil o'rganilgan qo'shiq, tinglangan musiqiy asar, ko'rilgan kontsert yoki musiqiy ko'rsatuv haqida so'zlashish mumkin. O'qituvchi dars mavzusini avvaldan aytib qo'ygan bo'lishi kerak. O'qituvchi tayyorlab qo'ygan savollarini beradi va o'quvchilar javob bera boshlaydilar. To'liq berilmagan javoblarni boshqa o'quvchilar to'ldiradilar. O'qituvchi suhbatni boshqarib boradi va o'quvchilarning faol ishtirot etishlarini ta'minlaydi.

Suhbat darslarida o'qituvchining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tuziladigan suhbat uchun qiziqarli va hayotiy savollar tayyorlash.
2. Savollar mavzuni to'la qamrab olishiga ahamiyat berish.
3. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalashlariga sharoit yaratish.
4. Savollar tizimli va izchil bo'lishiha erishish.
5. Barcha o'quvchilarni suhbatga jalb etish.
6. Suhbat davomida bir-birlariga hurmat ko'zi bilan qarashga erishish.
7. Muomalada o'quvchilarga namuna bo'lish.
8. Fikrlarni umulashtirish va xulosa chiqarish.

Musiqiy sayohat darslari - musiqashunoslik manbalarini o'rganish, biror bir kompozitorning ijodini kengroq o'rganish uchun kompozitorning uy mo'zeylariga, kontsertlarga, musiqiy festivallarga, musiqiy tanlovlarga sayohat qilish orqali yoki video tasma yordamida biror mavzuga oid musiqiy sayohat qilish orqali uyushtiriladi. Sayohat obyektlari dars mavzusiga bevosita aloqador bo'lishi muhim shartlardandir. Bu o'z navbatida sinfda o'tilgan darslardan ancha samaraliroq bo'lib, o'quvchilar ongida uzoq saqlanib qoladi.

Yoshlarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish. Umumiyl o'rta ta'lif maktablarida o'quvchi yoshlarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda, ularning barkamolligiga erishishda kasb-hunar rivojiga erishishda o'qituvchi-pedagoglar yuqorida fikrlardan xulosa chiqarganlari holda ta'limga

zamonaviy dasturlarni olib kirishlari lozim. O'quvchini qay darajada ko'roq bilim olishga, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga jalb etilsa, dars samaradorligiga, yoshlar tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yilishiga erishiladi. Buning uchun darsdan tashqari mashg'ulotlarni, to'garaklar faoliyatlarini chuqr o'zlashtirib, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini ko'ngilli tashkil etishga erishish lozim.

Cholg'u ijrochiligi boyicha o'qitish va o'qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimi usuli bo'lib, u maqsadga erishishga yo'naltirilgan holda insonlarning o'rganish qobiliyati va ular o'rtasida muloqot to'g'risidagi tadqiqotlar natijasiga hamda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkillashtirishning jonli, jonsiz vositalari bilan shug'ullanishga asoslanadi.

Musiqa madaniyati darslarida xalqimizning mumtoz va zamonaviy qadriyatlaridan bahramand bo'lish darslarning samarali bo'lishida o'rinnlidir, xuddi shuningdek tasviriy san'atda ham. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilarga faqatgina musiqa tinglash va qo'shiq kuylash yoki rasm chizish bilan chegaralanmay, "Odob - inson ziynati" mavzuida qiziqarli ochiq muloqotlar o'tkazishi, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan o'gitlardan foydalanishi mumkin.

Masalan, boshlang'ich sinflarda o'tiladigan musiqa darslarida musiqa ohangi ostida qo'shiq o'rganish va Vatanimizni sevish, o'zaro hurmat hamda axloq-odob qoidalari borasidagi bahs-munozara orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlay olish mumkin, shu vaqtning o'zida qo'shiq mazmunidan kelib chiqib, bolalarga rasm chizishni ham aytish mumkin shunda ular chizgan bayroq, gerbimizdagagi xumo qushning tasvirlari jonli chiqadi.

Tabiiyki musiqa ham aynan insonning ichki va tashqi dunyosini ohanglar orqali go'zallik va yaxshilikka yo'naltiradi. Ya'ni, kishilarda bo'lishi zarur bo'lgan hislatlar, aynan musiqada ham bo'ladi, jumladan, milliy qo'shiq chiroyli harakat, hushmuomalalik- hushohanglik bilan uyg'unlashadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, odobli bola bosiq, muloyim, kamtar ota-onasiga mehribon bo'ladi. Qo'pol, manmansiragan, hudbin bolalar esa elga yoqmaydi. Xuddi shuningdek, yoqimsiz qo'shiq yoki beo'xshov rasmlar ham insonning g'ashini keltiradi.

Dars davomida tarbiyaviy qo'shiqlarni o'rganish orqali o'quvchilarning ijodkorlik idroki kuchayadi, mustaqil fikrlaydi hamda tasvirlarda taqqoslash qobiliyatları rivojlanadi. Mustaqil fikrlay olgan o'quvchi o'qituvchi o'rgatgan qo'shiqnı to'g'ri o'rganadi, uning mazmuniga e'tibor berib kuylaydi hamda ta'sirli chiqadi.

Musiqa o'qituvchisi mavzudan kelib chiqib, o'quvchiga shunday savol berishi lozimki, savolning o'ta sodda va qiziqarliligi bahs-munozaraga aylanib ketsin. O'qituvchi-'edagog 45 daqiqa mobaynida salomlashuv odobi, nutq madaniyati, badiiy-obrazlilik, yuksak pedagogik mahorat, ijodkorlik qobiliyati orqali o'zini o'quvchilarga namoyon etishi lozim. O'qituvchi darsni tashkil etayotganda albatta o'quvchining yoshi va qiziqishini inobatga olishi shart, shundagina uning shogirdlari mustaqil fikrlagan holda o'z ustozidan andoza olaveradi.

Kasb ta'limini rivojlantirishda o'qituvchi pedagoglar o'quvchi- yoshlarni barkamollikka erishishlarida o'z ijodiy qobiliyatlarini sarflab, ularni bilimli-uquvli etib tarbiyalashlari lozim. Buning uchun hech nima to'siq bo'la olmaydi. Bugungi kunda o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy darslarni tashkil etish davr talabidir.

"Internetni o'rganadigan, yangilikka intiladigan yoshlar eng avvalo, mustaqil fikrlay olish, musiqani idrok etishni kuchaytirish bilan birga madaniyatli so'zlash qobiliyatiga ham ega bo'lishi zarur. Odobli va madaniyatli shaxsgina internetdan nimani qidirish va o'rganishni ham uddalaydi. Ayniqsa, odob-ahloq me'yorlarini o'rganish bilan bolada mukammalikka intilish, bilim doirasini kengaytirish, yashash tarzini o'rganib borish lozim".

Dastur asosida darsliklar, uslubiy qo'llanmalar, tavsiyanomalar, tahminiy mavzuli ish rejaliyi yaratilmoqda, chunki , musiqa tabiatiga ko'ra inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish hususiyati bilan birga o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish, musiqa idrokini shakllantirish, musiqa savodxonligini oshirish va ahloqiy-g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir.

O'quvchi bunday usuldagagi qo'shiqlarni tez o'zlashtiradi. Ular ohanglarning yoqimliligini qalban his etadilar, biroq yettinchi sinflarda berilgan xalq qo'shiqchiligidagi oid qo'shiqlar hamda maqomlar Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil oluvchi o'quvchilarga o'rganishlarida murakkabdir. Bunday qo'shiqlarni kasbga yo'naltirilgan o'quv muassasalariga berish o'rinnlidir.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda kognitiv fikrlaydigan shaxslar axborot texnologiyalari taraqqiy etgan va sun'iy intellekt yaratilishi natijasida turli mexanik harakatlar bilan bajariladigan ishlarning robotlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan sharoitda har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, kreativ shaxs tushunchasiga quyidagicha

## PEDAGOGIKA

ta’riflashni joiz deb topdik: “Kognitiv shaxs” – oldindan mavjud bo’lgan g’oyalarni, yangicha shaklda birlashtira oladigan ijodkor shaxs.

Kognitiv fikrلайдиган шахсларни тарбиялашда ойлаба фарзанд тарбиесини тоғ’ри ўйлашынан мөмкун. Биз бу борада асқотадиган қуидаги тақліф ва тавсияларни бериш мүмкін.

Kognitiv shaxslarni balog’atga yetgandan keyin emas, balki bolalik paytidan boshlab farzandlarimizga oilada to’g’ri tarbiya berishni yo’lga qo’yishimiz darkor. Ularning o’z fikrini mustaqil bildirishiga sharoit yaratib berishimiz va ushbu fikrlarini hurmat qilishimiz lozim.

Farzandlarimizni muayyan fan sohalari bo’yicha bilimlarni faqat yod oldirishga emas, kasbiy zaruriy bilimlarni ham o’zlashtirishlarini oshirishga, masalaning mohiyatini chuqur tahlil qila olishga o’rgatishimiz lozim.

Kognitiv shaxsni tarbиялашда atrof-muhitning o’rnini katta ahamiyatga ega bo’lib, farzandlarimizga bilim olishi bilan bir qatorda sog’lom ilmiy muhitni ham yaratib berishimiz lozim. Oilada, mактабда yoki do’stlar davrasidami ular kreativ g’oyalar bilan birga kognitiv tafakkurni bemalol bildira oladigan muhitning bo’lishi kognitiv g’oyalarni amaliyatga tatbiq etilishining ilk bosqichidir.

Albatta ota-onalar kognitiv shaxslarni tarbиялашда sabrli bo’lishi kerak. Farzandlarimiz xato qilgan paytida masalaning mohiyatini teran anglamasdan turib, ularni qattiq urishgandan ko’ra, xatolarining sabablarini tushuntirish va ularni bartaraf etish yo’llarini o’rgatmog’имиз lozim. Zero, falsafa qonunlariga ko’ra sabab oqibatni vujudga keltiradi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O’zbekiston Recpublikaci Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O’zbekiston Recpublikaci oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyacini tacdiqlash to’g’picida”gi PF-5847-conli Farmoni / “Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazaci”, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-con; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-con.
2. Abu Naq Fapobiy. Fozil odamlap shahpi / Tuzuvchi A.Ipicov, M.Maxmudov va bosh. – T.: Yangi acp avlod, 2016. – 48 b.
3. Barron F., Harrington D. Creativity, intelligence and personality // Ann.Rev of Psychol. – 1981. – Vol 32. – P. 439-476.
4. Davtyan A.M. Fompipovanie kreativnoy kompetentnosti uchashchixsya v uchloviyah shkolessogo dopolnitel’nogo obrazovaniya: metodicheskie pekomendatsii dlya uchiteley / A.M. Davtyan. – Chelyabinsk: Izd-vo IIUMTS, “Obrazovanie”, 2006. – 51c.
5. Novocelov C. A. Pedagogicheskaya cistema pazvitiya texnicheckogo tvorchestva v uchpejdenii ppofeccionalnogo obrazovaniya: dic. 13.00.01 d-pa ped. nauk. – Yekaterinburg: 1997. – 386 c.

*Muallif haqida ma’lumot:*

**Abdullahayev Sardorbek Maxammat o’g’li** – Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.